

Oriental Journal of Education



METHODOLOGY FOR DEVELOPING VOCAL PERFORMANCE SKILLS IN MUSIC TEACHERS

Dilyorakhon Kavilova*Acting Associate Professor of the "Vocal" Department**Uzbekistan State Institute of Art and Culture**Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences**e-mail: dilyoraxon1994@mail.ru**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: vocal performance, methodology, breathing technique, opera, pedagogy, music.

Received: 19.11.25**Accepted:** 20.11.25**Published:** 21.11.25

Abstract: This article discusses the historical formation and improvement of methods for developing vocal performance skills. It analyzes sound production, singing techniques, pedagogical concepts, and the activities of prominent vocal pedagogues from ancient civilizations to the era of the Italian vocal school. The study also highlights the emergence of new genres and styles, as well as the significance of mixed breathing techniques in vocal art.

MUSIQA O'QITUVCHILARIDA VOKAL IJROCHILIGI MALAKASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASIGA OID

Dilyoraxon Kavilova*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat**instituti "Vokal" kafedrasi dotsenti v.b.,**pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**e-mail: dilyoraxon1994@mail.ru**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: vokal ijrochiligi, metodika, nafas texnikasi, opera, pedagogika, musiqa.

Annotatsiya: Ushbu maqolada vokal ijrochiligi malakalarini rivojlantirish metodikasining tarixiy shakllanishi va takomillashuvi haqida so'z yuritiladi. Qadimgi sivilizatsiyalardan boshlab Italiya vokal maktabi davrigacha bo'lgan jarayonda ovoz hosil qilish, kuylash texnikasi, pedagogik qarashlar hamda mashhur vokal pedagoglari faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi janr va uslublarning shakllanishi hamda vokal san'atida aralash nafas olish texnikasining o'rni xususida yoritilgan.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ИСПОЛНИТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

Дилёрахон Кавилова

И.о. доцента кафедры «Вокал»

Узбекского государственного института искусства и культуры,

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

e-mail: dilyoraxon1994@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исполнительство, методика, техника, опера, педагогика, музыка.	вокальное дыхательная	Аннотация: В данной статье рассматриваются историческое становление и совершенствование методики развития вокальных исполнительских навыков. Анализируются процессы звукообразования, певческой техники, педагогические взгляды и деятельность известных вокальных педагогов — от древних цивилизаций до эпохи итальянской вокальной школы. Также освещаются вопросы формирования новых жанров и стилей, а также роль смешанного дыхания в вокальном искусстве.
--	---------------------------------	--

Kirish. Vokal ijrochiligi malakalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uning tarixiy rivojlanishiga bog'liqdir. Bizning eramizgacha Qadimgi Misr, Osiyo, Qadimgi Gretsiyada bayramlar, musobaqalar, difiramb shaklida tuzilgan va ijro etilgan. Qadimgi Gretsiyada yakkaxon ijrochilarning o'zlari she'r yozib, kuy bastalashgan. O'sha davrda erkak ovozlari bir necha turlardan iborat bo'lgan.

1. Netoide – virtuozi ovozi turi bo'lib, ariya sifatidagi asarlarni ijro etgan.

2. Mesoide – bu ovozi turi ommabop qo'shiqlar hamda xor asarlarini kuylash uchun mo'ljallangan.

3. Iratoide ovozi turida tragediya asarlari kuylangan.

XVI-XVII asrlar musiqa tarixida nazariy tushunchalar bo'lganligi tufayli, ashulachilik, uning texnik uslublarini ovozi hosil qilish jarayoniga ilmiy asosda bog'lay oladigan asarlar yaratila boshlandi. Bu asarla hozirgi davrgacha yetib kelgan bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining vokal ijrochiligi malakalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda o'z samarasini bermogda.

Adabiyotlar tahlili. Buyuk Rim o'qituvchisi Gioseffo Zarlino (1517-1590) o'zining "Garmoniya asoslari" asarida "Tabiat tomonidan berilgan tomoq, til, tanglay, o'pka qismlari tovush hosil qiladi hamda shu tovushdan so'z va ashula tug'iladi. Nutq – unli tovushlarning talaffuz paytida o'zgarmasligi va shu orqali ma'noli aytishga o'rgatish, unilarning oddiy bo'lib qolmasligini kuzatib borish kerak"ligini aytib o'tgan [1].

Italiyadagi ikkinchi vokal o'qituvchisi Lodovico Zacconi (1555-1627) "Musika amaliyoti" deb nomlangan hozirgacha saqlanib kelinayotgan buyuk asarida: "Yakkaxon ko'p ovozli asarlarni ijro etishda boshqa tovushlarning garmoniyasi bilan qo'shib kuylashni bilsagina shu asarni ijro eta oladi", – deb yozgan. Tsakkoniy asardagi melizmlarni ishlatish usullarini o'rganishda, yaxshi xonandalarning ijro yo'llarini eshitib o'rganishni tavsiya qilgan. Uning fikricha, ko'krak tovushlari tabiiy hisoblangan, chunki bu tovushlar o'zining musiqiyligini va jarangdorligi bilan ajralib turadigan xususiyatga ega hisoblanib, shu bilan birga undosh tovushlarni qattiq, kuchli ijro etishni talab qilgan. Vokalizlarni unli tovushlar bilan aytish kerakligini, xalqumning harakatchanligi triol va passajni mashq qilib doimiy o'rganishga bog'liqligini ta'kidlab o'tgan. Bu uslublarni mukammal o'rganish asta-sekinlik bilan asarni tez sur'atda ijro etish imkonini bergan [2].

Tadqiqot va natijalar. XVI asrda buyuk tenor, kompozitor, reformator Giulio Caccini (1545-1618) Florensiya shahrida kompozitor va shoirlardan iborat bo'lgan to'garak tashkil etgan. Kompozitorlar Kachchini, Peri, Kavalieri hamda shoirlar Korsi, Bardi va Rinuchinilar musiqiy qobiliyatga ega bo'lib, bu reformatning muvaffaqiyatli tuzilishiga sababchi bo'lishgan. Keyinchalik bu to'garak Bardlar akademiyasiga aylantirilgan. Mana shu musiqiy reforma opera, oratoriya, kantata janrlarining kelib chiqishiga asos sifatida xizmat qilgan. 1601-yil Kachchini madrigallar to'plamini chop etib, uni "Le Nuove Musiche" ("Yangi musika") deb nomlagan. Ushbu asarda vokal metodologiyasi haqida buyuk fikrlar bayon etilgan bo'lib, vokal ijrochiligi rivojida katta ahamiyatga ega manbaa hisoblanadi. Djulio Kachchinining vokal pedagogikasi uchun qilgan eng katta xizmatlaridan biri – asar mazmunini boyitish orqali "esklamatsiya" uslubida ish olib borib ovozni rivojlantirish metodikasi bo'lgan [3].

Muhokama. XVII asr oxirlariga borib operadagi dramatik voqea va uning mazmuni ikkinchi darajaga tushib, virtuoz vokal ijroning o'sishiga ko'proq ahamiyat berila boshlandi.

XVIII asr Italiya opera musiqasida erishilgan muvaffaqiyatlar yo'qqa chiqib, xonandalar o'rtasidagi vokal texnik musobaqalar misli ko'rilmagan darajada rivojlanib bordi. Bu davr ichida kastrat xonandalar vokal san'ati rivojini eng yuqori pog'onaga ko'targanlar. Kastrat xonandalar vakillari Tozi, Ferri, Kafarelli, Farinelli, Bernakki, Uberty-Porporino, Markezi va boshqalar vokal texnikasi rivoji yo'lida sidqidildan xizmat qilganlar. Ushbu xonandalar ikki oktavalik gammalarni bir nafasda ijro etganlar.

Buyuk pedagog Porporaning o'quvchilari orasida eng taniqli kastrat xonandalardan – Kafarelli, Farinelli, Bernakki, Uberty-Porporino, Apianni hamda ayol xonandalardan Mingotti, Gabrielli va boshqalar vokal san'ati rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Porpora o'z o'quvchilariga asarlarni ifodali, chuqur ma'noli ekanligini his etib virtuoz darajada ijro etishga o'rgatgan. Uning murabbiylik faoliyati usullari bo'yicha yozilgan ilmiy asarlari bizgacha yetib kelmagan. Uning

to'plangan vokal mashqlari hamda Kaffarelliga besh yil davomida o'rgatgan taniqli "varaqa" mashqlari vokal ijrochiligi merosida muhim o'rin tutadi [4].

Djoakkino Rossini (1792-1868) italyan vokal maktabining rivojlanishida o'zining kuchli hissasini qo'shgan. Uning operalaridagi virtuoz partiyalar, melodik chiziqlardagi qahramon xarakterini ochib bera olgan. Uning eng noyob asarlari Italiyaning ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynagan bo'lib, klassitsizm yo'nalishi vakili bo'lgan buyuk Rossini Italiyada yana bir yangi yo'nalish "Romantizm yo'nalishi"ga asos solgan [5].

Xulosa. Bu davrda Italiyada revolyutsion ozodlik harakatlari kuchaygan payt bo'lgan. Aynan shu vaqtda yirik kompozitorlar V.Bellini va G.Donitsettilar ijodiy yo'lining gurkirab rivojlangan davri bo'lgan. Bellini 34 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, o'zidan so'ng "Norma", "Pirat", "Somnambula"ga o'xshagan yirik asarlarni qoldirgan. Ushbu opera asarlari hozirgi kungacha jahon sahnalarida ijro etib kelinmoqda.

Bellini bilan bir qatorda ijod etib, uzoq umr ko'rgan G.Donitsetti juda ko'p opera asarlari yaratgan bo'lib, ulardan eng mashhurlari "Lyuchiya de Lamurmur" va "Sevgi sharobi" operalaridir. Bu ikki kompozitor romantizm yo'nalishida ijod qilib, asosan fioritura (vokal bezaklari) uslubi ustida ishlab, bel canto (go'zal ashula) usullarini rivojlantirishga muvaffaq bo'lishgan. U davrda xonandalar ko'proq ko'krak qafasi nafas turidan foydalanishgan. XIX asrda yashab ijod etgan buyuk va qudratli Djuzeppe Verdi o'z davrining milliy g'ururi sanalib, Italiyaning ta'sirchan siyosatida qahramona obrazga ega hamda vokal pedagogikasi rivojiga musiqali dramani olib kirgan daho kompozitor hisoblanadi. Uning 26 ta tragedik opera asarlari xonandalardan kosta-abdominal nafasidan foydalanishni talab qilgan. Bu aralash nafas katta hajmdagi kuchga ega bo'lgan ovozlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Shu tariqa Italiya vokal maktabida misli ko'rilmagan ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish paydo bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.Zarlino. Le istituzioni harmoniche. Venice., 1558. Prima parte, P.357.
2. Lodovico Zacconi. Pratica de musica, utile et necessaria si al compositore, come al cantore. Venice., 1592. Terza parte, – P.470.
3. G.Caccini. Le nuove musiche. Firenze., 1602. – P.79.
4. Nadine Winston. The forgotten Genius of Baroque Music. Ahrensburg., 2025. – P.224.
5. Richard Osborne. Rossini: his life and works. Oxford university Press., 2007, II. – P.432.